

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “BEXOSDAN QULAB  
TUSHDIM OSMONINGDAN, MUHABBAT” SHE’RI BADIY TAHLILI**

**Nurmaxmatova Firuza Rasulovna**

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

[feruzanurmaxmatova2005@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova2005@gmail.com)

**Annotatsiya:** Aleksandr Arkadevich Faynberg XX asr o'zbek adabiyotida yuksak mavqega ega, iste'dodli ijodkordir. U o'z she'riyatida g'arbona adabiy uslubni sharqona an'analar bilan uyg'unlashtirib ajoyib asarlar yarata olgan. Garchi uning asarlarida G'arbga xos dramatism, keskinlik bilinib tursada, sharqona o'xshatishlar va tasvirlarning ishlatilishi bu keskinlikni yumshatib beqiyos hamohanglikni yuzaga keltirgan. Shoir she'riyatidagi G'arbga moyillik faqat she'r tonidan bilinadi. Faynberg lirikasiga xos xususiyat shundaki, u tashqarida sodir bo'layotgan voqealarni emas, inson qalbida va ongostidagi ichki dramatismni markazga qo'yadi. Shoir uchun umr bu voqealar ketma-ketligi emas, ruhiy holatlar almashinishi, ichki ziddiyat va izlanishlar jarayonidir. Faynberg poetik tafakkurida sevgi, yolg'izlik, vaqt, xotira, yo'l, kutish kabi tushunchalar ruhiy teranlik, falsafiy mushohada va badiiy aniqlikni hamohanglashtirish orqali ochib beriladi. Ijodkor inson chki sinovlarini estetik hodisaga aylantira olgan. Ayniqsa, uning adabiyotida muhabbat hissiy holat emas, bir shaxsning o'z "men"ini anglab yetish jarayonidagi muhim bosqich sifatida ta'riflanadi. Shoir o'z asarlarida dramatismni baland pardada emas, balki ichki jimjitlik, iztirob va tormozlangan hissiyotlar orqali ko'rsatib beradi. Aleksandr Faynberg she'riyatining o'ziga xosligi, o'quvchiga ta'sir qilish darajasining kuchli ekanligining siri ham shu yerda yashirin: u kitobxonga keng tarqalgan balandparvoz shiorlarni eshittirish o'rniga yurak tubidagi sokin, ammo larzali zarbani eshittira oladi. Uning she'riy dunyosida inson aksaryat hollarda ikki qarama-qarshi kuch-umid va umidsizlik, iroda va zaiflik, yaqinlik va begonalik orasida arosatda turadi. Shu jihatdan shoir zamonaviy

insonning ruhiy portretini qog‘ozga tushurishda asosiy manba bòlib xizmat qiladi. Aleksandr Arkadevich Faynbergning "Bexosdan qulab tushdim osmoningdan,muhabbat" misrasi bilan boshlanuvchi she'r shoir poetikasidagi ichki dramatismning eng zich nuqtalridan biridir.She'r matni bir qarashda ayriliq lirikasidek kòrinsa ham,chuqur qatlamda u shaxaning ichki parchalanganligi,inson irodasi va jarohati òrtasidagi jang,umid va inkor sahnasini ochib beradi. Mazkur maqolada Faynbergning "Bexosdan qulab tushdim,osmoningdan muhabbat" she'ri lirikasiga xos dramatism,ruhiy jarohat estetikasi va yashash irodasining badiiy ifodalanish mexanizmi tadqiq etiladi.

**Abstract:** Alexander Arkadevich Feinberg is a talented artist who holds a high position in 20th-century Uzbek literature. In his poetry, he was able to create wonderful works by combining Western literary style with Eastern traditions. Although his works are characterized by Western drama and sharpness, the use of Eastern analogies and images softens this sharpness and creates an incomparable harmony. The tendency to the West in the poet's poetry is only noticeable in the tone of the poem. A characteristic feature of Feinberg's lyrics is that he focuses not on external events, but on the internal drama in the human heart and subconscious. For the poet, life is not a sequence of events, but a process of change of mental states, internal conflicts and searches. In Feinberg's poetic thinking, concepts such as love, loneliness, time, memory, the path, and waiting are spiritual depth, philosophical observation, and artistic accuracy is revealed through the harmonization of the inner trials of a creative person. In particular, in his literature, love is described not as an emotional state, but as an important stage in the process of a person's realization of his own "I". In his works, the poet shows drama not through a high curtain, but through inner silence, suffering and suppressed emotions. The uniqueness of Alexander Feinberg's poetry, the secret of the strength of its impact on the reader is hidden here: instead of hearing the widespread high-flying slogans, he is able to make the reader hear a quiet, but trembling beat from the depths of the heart. In his poetic world, a person most often stands between two opposing forces - hope and despair, will and weakness, closeness and alienation. In this regard, the poet serves as the main source for capturing on paper the spiritual portrait of modern man. Alexander Arkadyevich Feinberg The poem, which

begins with the line "I fell from the sky, love," is one of the most intense points of internal drama in the poet's poetics. Although the text of the poem at first glance seems like a lyric of separation, at a deeper level it reveals the internal fragmentation of the body, the battle between human will and trauma, a scene of hope and denial. This article examines the dramatism inherent in the lyrics of Feinberg's poem "I fell from the sky, love," the aesthetics of spiritual trauma, and the mechanism of artistic expression of the will to live.

**Аннотация:** Александр Аркадевич Файнберг — талантливый художник, занимающий высокое место в узбекской литературе XX века. В своей поэзии он сумел создать замечательные произведения, сочетая западный литературный стиль с восточными традициями. Хотя его произведения характеризуются западной драматичностью и остротой, использование восточных аналогий и образов смягчает эту остроту и создает несравненную гармонию. Тенденция к Западу в поэзии поэта заметна лишь в тоне стихотворения. Характерной чертой лирики Файнберга является то, что он фокусируется не на внешних событиях, а на внутренней драме в человеческом сердце и подсознании. Для поэта жизнь — это не последовательность событий, а процесс изменения психических состояний, внутренних конфликтов и поисков. В поэтическом мышлении Файнберга такие понятия, как любовь, одиночество, время, память, путь и ожидание, обладают духовной глубиной, философской наблюдательностью, а художественная точность раскрывается через гармонизацию внутренних испытаний творческой личности. В частности, в его литературе любовь описывается не как эмоциональное состояние, а как важный этап в процессе самопознания человека. В своих произведениях поэт показывает драму не через высокую завесу, а через внутреннее молчание, страдание и подавленные эмоции. Уникальность поэзии Александра Файнберга, секрет силы её воздействия на читателя, скрыт здесь: вместо распространённых высокопарных лозунгов он способен заставить читателя услышать тихий, но трепетный ритм из глубины сердца. В его поэтическом мире человек чаще всего стоит между двумя противоборствующими силами — надеждой и отчаянием, волей и слабостью, близостью и отчуждением. В этом отношении поэт служит главным источником для

запечатления на бумаге духовного портрета современного человека. Стихотворение Александра Аркадьевича Файнберга, начинающееся со строки «Я упал с неба, любовь», является одним из самых напряжённых моментов внутренней драмы в поэтике поэта. Хотя на первый взгляд текст стихотворения кажется лирикой разлуки, на более глубоком уровне он раскрывает внутреннюю фрагментацию тела, борьбу между человеческой волей и травмой, сцену надежды и отрицания. В этой статье рассматривается драматизм, присущий лирике стихотворения Файнберга «Я упал с неба, любовь», эстетика духовной травмы и механизм художественного выражения воли к жизни.

**Kalit soʻzlar:** Aleksandr Arkadevich Faynberg, muhabbat, sevgi va ayriliq, ichki dramatism, ruhiy iztirob, qalb kechinmalari, yolgʻizlik, umid va umidsizlik, iroda va zaiflik, yashash irodasi, inson “meni”, ruhiy parchalanganlik, vokzal obrazi, shamol timsoli, metafora, ramz, badiiy tasvir, poetik tafakkur, lirika, zamonaviy inson ruhiyati.

**Keywords:** Alexander Arkadyevich Feinberg, love, love and separation, internal drama, spiritual anguish, feelings of the heart, loneliness, hope and despair, will and weakness, the will to live, human "I", spiritual fragmentation, the image of the train station, the image of the wind, metaphor, symbol, artistic image, poetic thought, lyrics, modern human psyche.

**Ключевые слова:** Александр Аркадьевич Файнберг, любовь, любовь и разлука, внутренняя драма, духовные муки, чувства сердца, одиночество, надежда и отчаяние, воля и слабость, воля к жизни, человеческое «я», духовная фрагментация, образ вокзала, образ ветра, метафора, символ, художественный образ, поэтическая мысль, лирика, современная человеческая психика.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Bexosdan qulab tushdim osmoningdan,muhabbat...” misralari bilan boshlanuvchi sheʼri muhabbat va inson yuragidagi ichki kurash taʼsirchan uslubda oʻquvchi qalbiga yaqin,mutolaa qilishi uchun ravon qilib yozilgan ajoyib asardir.Sheʼrning asosiy gʻoyasi asosiy gʻoyasi shundan

iboratki, muhabbat inson uchun juda qadrli his bo'lib inson yoriga oshiq bo'lganda bu tuyg'u uning butun qalbini, vujudini egallab oladi. U insonning shunchalar aqldan ozdiradiki, sevgi tamom bo'lib, yor uzoqlashganda, insonning butun ichki dunyosi, qalbi, vujudi, hayoti vayron bo'ladi, parchalanadi. Biroq inson ko'nikuvchan mavjudot, unda iroda bor. U o'sha matonati bilan, garchi hayotida hech narsa qolmagan bo'lsa-da, parchalangan yuragini qo'lga olib hayotga qayta umid bilan boqa oladi. Nimaiki boshiga tushmasin inson bolasi o'ziga xos go'zal fazilati sabr-matonat orqali yashashni tanlaydi hatto avvaliga bu juda og'riqli, qalbida tinimsiz nishtardek azob berib turaversa ham.

She'r boshida lirik qahramon muhabbatni "osmon"ga o'xshatadi. Osmon-yuksaklik, orzu va baxt ramzi sanaladi. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, muhabbat uning hayotidagi eng oliy tuyg'u bo'lgan, to hammasi barbod bo'lmagunga qadar. Ammo u o'zi hayotda eng muqaddas deb hisoblagani ushbu osmonda "qulab tushadi", sevgisidan judo bo'ladi. Bu qulab tushish uning uchun shunchaki xafa bo'lish emas, ruhan sinish, borlig'idan ayrilish, qalbi ostidagi ajib dunyosining barbod bo'lishi edi. Qahramon ko'zidan oqayotgan ko'z yoshlarining "sel"ga qiyoslanishi bu ayriliq uning uchun qanchalar talofatli kelganini, qalbidagi dardining shiddatli va oxiri yo'qdek ekanligini ko'rsatib bermoqda.

Keyingi misralarda shoir o'zini vokzaldagi oddiy yo'lovchiga qiyoslaydi. Bilamizki, vokzalda insonlar bir oz muddat, o'z poyezdlariga chiqquncha yoki to'xtagan poezdlari jo'nagungacha bo'lgan fursatda bo'ladilar, Bu Vokzal bu yerda vaqtinchalik joy, yo'lovchi esa doimiy manzilga ega bo'lmagan shaxsdir. Bu o'xshatish orqali shoir lirik qahramonning ruhiy jihatdan beqarorligini, yolg'izligini ko'rsatishga urinadi. U hayotda ham muhabbatda ham o'z o'rnini topolmayotgandek. Endi bu kimsasizlik uni shunchalar qiynoqqa solmoqdaki, qalbida alamning "daydi shamoli uvullab" unga o'sha darbadarligi eslatib turgandek.

Bexosdan qulab tushdim osmoningdan, muhabbat,

Ko'z yoshimning sellari yuvib ketdi izingni.

Vokzalda yo‘lovchidek his etaman o‘zimni,

Daydi shamol uvillar yuragimda oqibat.

She‘r o‘rtalarida shoir o‘zini kuchli ko‘rsatishga astoydil harakat qilib : “Na dardim bor,na qayg‘um” deb ta‘kidlaydi.Asilda esa u ichidan o‘tayotgan og‘riqni yashirmoqda.U muhabbati bilan vidolashadi,go‘yoki hamma hammasi o‘z nihoyasiga yetganday tuyladi.endi bir paytlar lirik qahramonga noz-u ishva bilan “ko‘z suzgan qiz” unning uchun hech kim.Uning qarori shunchalar qat‘iy,u shunchalar xafa bo‘lganki, shayto makkorlik qilib yori yoniga eltaman deb ko‘ndirishga harakat qilsa ham endi u qaytmaydi.

Na dardim bor, na qayg‘um. Yashayapman darbadar,

Do‘stlardan ayamayman topganimni, non-tuzni.

Endi menga begona – ko‘zlarin suzgan qizning

Yoniga elta olmas hatto shayton ham makkor.

Keyingi badda lirik qahramon muhabbat bilan batamom xayrlashishga qaror bergan bo‘lsa ham,uning qalbida nimadir bor: qalban hali u yoridan uzila olmagan.”Xayr,sevgi.Xayr,ishq” deya u ayriliqqa o‘zini ishontirishga urinmoqda.Lekin “biroq” so‘zi orqali boshlangan misra hayot kutilmagan o‘zgarishlarga to‘lgan ham qalb qarorlarimizning hammasini birdek qabul qila olmaydi deyotgandek.Vokzal tomondan kelayotgan dilbar qiz ta‘rifi qahramonning ichkli olamida sevgi hali ham nobud bo‘lmaganining isbotidir.U qizning ustidagi kiyimigacha e‘tibor beradi.Bu esa befarqlikni emas,qalb ostida yashirinib yotgan sog‘inch tug‘yonini bildiradi.Demak,inson tili bilan sevgisiga xayr deb vidolashishi mumkin,biroq u osonlikcha unutilmaydi.Muhabbat qaror bilan ichki kechinmalar bilan yashaydi.

Xayr, sevgi. Xayr, ishq. Dilimda o‘zga iqror,

Biroq vokzal tarafdin kelayotir qay dildor.

Inglizcha kurtka va serb etikda xiromon?

She'ning so'nggi bandini o'qishni davom etar ekanmiz, lirik qahramon sevganini qayta uchratganida yuraqqiga bosib qo'yilgan barcha hislar birdan yana uyg'on aboshlaganini payqaymiz. U boshida hayratga tushadi, ko'zlariga ishonmaydi, ammo alal oqibat tan oladiki, qalbidagi muhabbat hali ham so'nmagan. "Tek tur, Devona yurak", "Yorilmay tur jarohat" kabi jumlalar ichki og'riqni asli yo'qdek inkor etish emas, uni boshqarish uchun qilinayotgan harakatni ifodalaydi. Eng asosiy mulohaza "Hali yashashim kerak" jumlasida jamlangan. Qahramon og'ir azob iskanjasida qolib ketgan bo'lishiga qaramasdan, yashashni, nafas olishni tanlamoqda. Bu inson qalbi larzaga tushsa ham u o'zini yo'qotmasli, idora qila olishi kerak ekanligini anglatadi.

Qay go'zalning sochlari yelkasida qo'ng'iroq?

O'sha qizmi? Ha, o'sha. Tek tur, devona yurak.

Yorilmay tur, jarohat. Hali yashashim kerak.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr arkadevich Faynbergning "Bexosdan qulab tushdim osmoningdan, muhabbat..." she'ri inson qalbiga xos bo'lgan ichki dramatismni, ruhit jarohatni, sabr-qanoat va irodasini ajoyib tarzda tasvirlab berga san'at asari deb e'tirof etsak also mubolag'a bo'lmaydi. She'rda muhabbat shunchaki hissiyotlar vositasida ro'y beradiga oddiy holat emas, insonning o'z "men"ini topish yo'lidagi bir sinov, jarayon sifatida talqin etiladi. Bu asar bilan ijodkor zamonaviy inson ruhiy portretini chizib, kitobxonga ko'ngil ostidagi sokin, biroq larzaga soladigan tuyg'ularni his qilib ko'rish imkonini yaratib beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. <https://ilmlar.uz/faynberg-aleksandr-arkadevich-hayoti-va-ijodi/>
2. <https://arm.samdchi.uz/library/download/692>
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)
4. To'xtasinov A. Lirik qahramon psixologiyasi. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.

5. M. She'riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda uyg'unligi. — “Adabiyot nazariyasi jurnali”, №3, 2022.
6. Usmonova D. Zamonaviy she'riyatda sevgi falsafasi va poetik obrazlar tizimi. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.